



“Qadriyatlaring boqiy bo‘lsin, Navro‘z”

Rektor tabrigi

Assalomu alaykum!

Qadrlı ustozlar!

Aziz talaba-yoshlar!

Sizlarni bahor bayrami – Navro‘zi olam bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman!

Yangilanish va yasharish fasli oilangizga baxt-saodat, hayotingizga quvonch olib kelsin.

Yurtimiz obodligi va xalqimiz farovonligi yo‘lida olib borayotgan faoliyatingizga ulkan zafarlar tilayman.

Navro‘z yangi kun, Sharqona yangi yil o‘laroq, yangi g‘oyalarga, yangi marallarga ilhomlantiradi.

Shunday ekan biz – institut jamoasi bugun oldimizga Yangi O‘zbekiston san‘ati va madaniyati rivojiga hissa qo‘shishdek katta maqsadlarni qo‘ymoqdamiz.

Zeroki, bugun Davlatimiz Rahbari tomonidan sohamizga berilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik sabab o‘z oldimizga mana shunday ulkan maqsad qo‘yishimiz va uni amalga oshirishimizga barcha imkoniyatlar yaratildi.

Ayni paytda Xitoy Xalq Respublikasiga xizmat safarida bo‘lib, bir qancha oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatmoqdamiz.

Bu ham yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar hamda san‘at va madaniyat sohasiga berilayotgan e‘tibor samarasidir.

Bu e‘tirofga munosib bo‘lish siz-u bizning yuksak vazifamizdir.

Yana bir bor Navro‘z ayyomingiz muborabak bo‘lsin!

Ehtirom ila,

Nodirbek SAYFULLAYEV,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida
“QADRIYATLARING BOQIY BO‘LSIN,
NAVRO‘Z” shiori ostida bayram
tadbiri tashkil etildi.

Bayramda institut kafedralari va bo‘limlar tomonidan hududlarimizda tayyorlanadigan turli xil milliy taomlarimizdan iborat dasturxon tuzatildi.

Shuningdek, milliy o‘yinlarimiz – “Qarab tep”, “Chillak”, “Varrak uchirish”, “Arqon tortish”, “Kurash” hamda “Osh chempionati” kabi musobaqalar tashkil etildi.

Kafedralar va bo‘limlar o‘rtasida o‘ziga xos do‘stona musobaqa tashkil etilib, ular tomonidan bezatilgan dasturxonlar, milliy kiyimlar, namoyish etilgan urf-odatlar hakamlar tomonidan baholandi.

Tantanali marosimda Madaniyat vaziri o‘rinbosarlari – Murodjon Majidov va Yusufjon Usmonovlar so‘zga chiqib, barchani qutlug‘ ayyom bilan samimiy muborakbod etishdi. Yurtimizda san‘at va madaniyat rivojiga berilayotgan e‘tibor haqida to‘xtalib, birgina 2024-yilda sohaga oid 49 ta hujjat qabul qilinganini alohida e‘tirof etib o‘tishdi.

Institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev yig‘ilganlarni Navro‘z ayyomi bilan samimiy muborakbod etar ekan, – “Navro‘z yangi kun, Sharqona



yangi yil o‘laroq, yangi g‘oyalarga, yangi marallarga ilhomlantiradi, shunday ekan biz – institut jamoasi bugun oldimizga Yangi O‘zbekiston san‘ati va madaniyati rivojiga hissa qo‘shishdek katta maqsadlarni qo‘ymoqdamiz, zeroki, bugun Davlatimiz rahbari tomonidan sohamizga berilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik sabab mana shunday ulkan marallarni ko‘zlashimiz va uni amalga oshirishimizga barcha imkoniyatlar yaratildi”. – dedi.

Shundan so‘ng joriy yilda qutlug‘ 75 yoshini nishonlagan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Munavvara Abdullayeva hamda qutlug‘ 70 yoshini nishonlagan

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Nazriddin Shermatovlar samimiy muborakbod etilib, tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari taqdim etildi.

Shuningdek, bugungi bayram tadbirlarida “Osh chempionati”, “Eng yaxshi bezatilgan hudud”, “Eng yaxshi milliy liboslar”, “Eng yaxshi urf-odat”, “Eng yaxshi bezatilgan Navro‘z dasturxon”, “Eng yaxshi hunarmandchilik namunalari” kabi nominatsiyalar g‘oliblari ham munosib taqdirlandi.

Bundan tashqari, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarda faol ishtiroki va fanlarni a‘lo bahoga o‘zlashtirganligi uchun bir guruh talabalar, jamoat ishlarida faol ishtiroki va o‘z ishini mas‘uliyat bilan bajarayotganligi uchun xodimlar ham rag‘batlantirildi.

“Rektor kubogi” sport musobaqalarida go‘liblikni qo‘lga kiritgan professor-o‘qituvchilar va talabalar kubok, medal va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Shundan so‘ng doshqozonda qaynab turgan sumalak atrofida yaxshi tilaklar, niyatlar bildirildi.

Bayram tadbirlari kuy-qo‘shiq va raqslar bilan davom ettirildi hamda yig‘ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.



Bugungi
sonda:

USTOZGA EHTIROM

O‘zDSMI ingliz tili fani o‘qituvchisi
Zilola Ergasheva
portretiga chizgilar

“Oksfordda o‘qishimga qiz bolaligim uchun ruxsat berishmagan...”

Xalqaro darajadagi ingliz tili o‘qituvchisi, “Axborot-kutubxona faoliyati” yo‘nalishi sobiq talabasi
Shohida SHOVIYEVA bilan suhbat

QOPLON (hikoya)

Oradan vaqt o‘tdi. Bu hovlida “Yor-yor” aytilib, kelin ham tushdi. Uydagilar o‘tgan noxushlikni eslamay ham qo‘yishdi. Lekin Norinning ko‘ngil chigili yozilmadi.

RAMAZON ARMONI

Har yili mohi
Ramazonda, guldin go‘zal
Gulnora xolam menga
jilmayib qarab turgandek
bo‘laveradi...





Zulfiya ijodiga chizgilar

◀ Boshlanishi 1- betda

Shoiraning hayotiy va ijodiy yo'li ibratli bir asarga o'xshaydi. Uni o'qib, o'rgangan o'quvchi o'zi uchun yangidan-yangi xulosalar chiqarib olaveradi. Zulfiya badiiy ijodida o'zbek xalqi va uning ko'p asrli urf-odatlarini tarannum qilgan. Iste'dodli shoira Zulfiya, o'z asarlarini turli uslublarda: lirik shaklda, publitsistik janrda yaratgan. Zulfiyaxonimning ovozi vatan sarhadlari osha butun Osiyo hududlarida yangradi. Shoira qayerga bormasin, otashin so'zi bilan Sharq ayolining go'zal timsoli bo'lib mehr qozondi. U ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida tanilgan shoira. Zulfiya "Uylar", "Shalola" kabi she'riy majmualari uchun Hamza nomidagi Pespública davlat mukofoti sovrindori bo'lgan. Hind mavzuidagi she'rlari uchun Javoharlal Neru nomidagi xalqaro sovrin, tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro "Nilufar" mukofotlari bilan taqdirlangan benazir shoira edi.

Zulfiya ijodiga nazar solsak, beixtiyor ko'z o'ngimizda ikki siymo namoyon bo'ladi. Bularning biri Nodirai davron, ikkinchisi Zulfiya. Bu xokisor shoiralarning yuksak istedodlarida ham, adabiy taqdirlarida ham, sharq ayollariga xos ibratomuz insoniy fazilatlarida ham bir nav o'xshashlik uchraydi. Nodira nodir she'rlari bilangina emas, vafo va sadoqati, ibo va iffati bilan ham o'zbek ayolining mujassam timsoli bo'lib qoldi. Ayni shu xislatlar va fazilatlar Zulfiyaning ham tug'ma ziynati edi.

Lirik shoir Hamid Olimjon bilan birga o'tkazgan hayot yo'li Zulfiyaxonim qismatining eng baxtli onlari sanaladi. Bu davrda u turmush lazzatlaridan bahramand bo'ldi, farzand tarbiyaladi, tabiat va hayot go'zalliklarini tarannum etuvchi ajoyib she'rlar yozdi. Biroq Hamid Olimjonning nogahoniy o'limi tufayli Zulfiya nazmidagi baxt va shodlik tuyg'ulari o'rnini alam va ayriliq iztiroblari egalladi. Dastlab, sevimli yordan beminnat hamkoridan judo bo'lgan shoira firoq bilan qalam tebratdi:

**Seni birdan jonsiz ko'rdim,
Jonim ketdi sening-la.
Es-hushimdan ajrab turdim,
Tuyg'um ketdi sening-la....
Hijroning qalbidam,
Sozing qo'lida,
Tunlar tushimdasam,
Kunlar yonimda,
Men hayot ekanman,
Hayotsan sen ham.**

"Odamning taqdiri o'ziga bog'liq", degan naql bor xalqimizda. Bu naqlni irodasi taqdiridan ustun kimsalargina nisbat berish mumkin. Zulfiya opa shunday siymolardan

**Qunduz NISHONBOYEVA,
"San'atshunoslik va
madaniyatshunoslik"
kafedrası professori v.b,
tarix fanlari nomzodi**

biri, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Shaxsiy g'ussalarini yengib, umumbashariy iztiroblar bilan band bo'lganida, Zulfiya she'riyat bo'stonida yuksak san'atkor maqomiga ko'tarildi. She'rlarida To'maris jasorati, Anbar otin ma'rifati Nodirai davron shijoati jo'sh urdi. Zulfiya opa soxta shuxratlarga berilmadi, el e'zoziga dilbar va o'ktam she'rlari orqali erishdi.

**Bog'lar qiyg'os gulda
Bog'lar qiyg'os gulda – yaxlit bir
chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.
Bir kaft bog' mehnat-u hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda.
Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.
Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,
Biri-biri uchun qudrat, himoya.
Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole' serzavq, serjilo?
Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo.
Bir qardosh tinchisiz – o'zga beorom,
Birining nonisiz – o'zga emas to'q...
Bu – qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q.
Tayanch bo'lmasaydi odamzot albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.**

Zulfiyaxonim ijodining o'z davrida barcha tan olgan yana bir qirrasini bor. Aslida, o'zbek she'iyatida she'r yozib, elga manzur qilish juda ham mushkul. Chunki, xalqimiz buyuk she'riyat ruhida tarbiya topgan. Lekin shunga qaramay, Zulfiya o'z she'rlarini nafaqat o'zbek eliga, balki boshqa ellarga Yevropa, Osiyo, Afrika xalqlariga manzur qila oldi. Pushkin, Nekrasov, Mustay Karim, Qaysin Quliyev kabi she'riyat darg'alari asarlarini mohirlik bilan tarjima qilib, milliy adabiyotimizni boyitdi.

Zulfiya she'riyat orqali ibratli bir maktab yaratib ketdi. Shoira hayotning, ijodning barcha issiq-sovug'ini ko'rди, qanchalik fojeaviy, qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, kechirgan umridan nolimadi, matonat ila Sharq ayoliga xos oddiy insoniy xulosa chiqardi. Hamisha kelajakka ishonch, o'tgan umridan mamnun bo'lgan el qizi Zulfiyaxonim ruhi bu muborak bahor kunlarida shod bo'lsin deymiz. "Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman", degan so'zlarni aytish faqat uni o'zigagina yarashib turishi, u hamisha qalbini xalqi bilan chambarchas bog'lay olgani bizga havaslidir.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi

8-mart – bu nafaqat ayollar go'zalligi va nafosatini ulug'lash kuni, balki ularning jamiyat rivojiga qo'shgan hissasini e'tirof etish, izzat-ikrom ko'rsatish bayramidir. Shu munosabat bilan, Ko'ksaroy qarorgohida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tantanali ravishda topshirildi.

**Ruhshona YUNUSOVA, Sarvara SODIQOVA,
"San'at jurnalistikasi"
yo'nalishi 1-bosqich talabalari**

Bu yil ushbu yuksak mukofotga 28 nafar iqtidorli qizlar sazovor bo'ldilar. Quvonarlisi shundaki, mukofot sovrindorlari orasida institutimizning "Estrada aktyorligi san'ati" yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nasiba Sodiqova ham bor.

Nasiba Sodiqova 2004-yil 19-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. U yosh bo'lishiga qaramay, san'at sohasida yuksak yutuqlarga erishib, o'z mahoratini bir necha bor namoyish etgan. Uning erishgan yutuqlari:

"Aktor" loyihasi (Zo'r TV) – 3-o'rin (2022); "Yoshlar raqs festivali" – 1-o'rin (2022); "Dunyoning chekkasida" filmi – bosh rol, Hindistonda "Eng yaxshi ekologik film" (2023); "Yil talabasi" – 1-o'rin (2023, 2024); Milliy drama teatr aktrisasi, "Arshin mol olon" spektaklida rol ijrochisi (2024); "Yoshlar ovozi" – opera yo'nalishida 2-o'rin (2024); "Halima Nosirova", "Qari qiz", "Tariq", "Cho'liq" filmlarida bosh rollar (2024); "Vada", "Temurbeklar maktabi" filmi – Jumagul Qo'ziyeva obrazi (2024);

Xalqaro "Ilhamiyat – Vdoxnovenie" tanlovi – To'lg'onoy monologi bilan ishtirokchi (2024); "Eng yaxshi monolog ijrochisi" – 1-o'rin (2024).

Nasiba Sodiqovanning san'at sohasidagi erishgan yutuqlari, uning mehnatkashligi va mahoratini yana bir bor isbotlaydi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti esa, uning ijodiy yo'lida muhim bosqich bo'lib, kelajakda yanada yuksak marralarni zabt etishiga ishonch bag'ishlaydi. Mukofot sohibasiga muvaffaqiyat va yangi zafarlar tilaymiz!

"Zulfiyaxonim izdoshlari"

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talaba-qizlar uchun "Zulfiyaxonim izdoshlari" deb nomlangan davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirda institut xotin-qizlar bo'limi rahbar xodimalari, talaba-qizlar hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari: Iroda Berdiyeva, Nilufar Axmadaliyeva va Nasiba Sodiqovalar ishtirok etib, o'z tajribalarini qizlar bilan bo'lishdilar.

**Oqila ORTIQBOYEVA,
"Madaniyat va san'at muassasalari
faoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi**



Davra suhbatida yurtimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hech bir davlatda kuzatilmasligi, buning samarasi o'laroq qizlarimiz ham jahon miqyosida bir qancha yutuqlarga erishayotganligiga alohida urg'u berilib, avvalo, har bir qiz ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanishi darkorligi ta'kidlandi. Mukofot sohibalari yuksak e'tirof Zulfiya nomidagi davlat mukofoti qanday imkoniyatlar taqdim etishi va unga sazovor bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish borasida ham tavsiyalar berib o'tishdi. Har bir qizning orzusi aynan ushbu mukofotni shaxsan davlatimiz rahbari qo'lidan olish, yuksak sharaf va orzu bo'lsa kerak deb o'ylayman. "Davradagi qizlarimiz qatori mening ham oliy maqsadim ushbu davlat mukofotini qo'lga kiritib, Prezidentimizning ishonchini oqlash hamda faoliyat yuritayotgan soham doirasida bir qancha yangiliklar kiritishni maqsad qilib qo'yganman. Uch yildan buyon mukofot sohibasi, ilk ustozlik qilgan Iroda Berdiyevaga havas qilib san'at yo'nalishi bo'yicha hujjatlarimni topshirib, saralash bosqichlarida ishtirok etdim.

Shuningdek, tadbirda so'z olganlar benazir ayol, buyuk ona, vafo va sadoqat timsoli shoira Zulfiya Isroilovanning hayoti va ijodi haqida so'z yuritdilar. O'ylaymanki, tadbirda ishtirok etgan barcha tengdoshlarimizni o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortdi. Aslida, muvaffaqiyatning hech qanday siri yo'q, barchasi maqsad, harakat va mehnat orqasidan keladi".



21-mart –
O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq shoiri
Abdulla Oripov
tavallud topgan kun



Sen bahorni sog'inmadingmi?

Abdulloh SAGDULLAYEV,
“Ashula va raqs”
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodi hamda oliyjanob insoniy fazilatlarini xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shoirning Vatanga muhabbat, sadoqat va vafoning ifodasi bo'lgan asarlari, uning sarmazmun hayoti va ijtimoiy faoliyati yosh avlod tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega.

Shoir tavalludining 84 yilligi munosabati bilan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida Xalq ijodiyoti fakulteti, Xotin-qizlar maslahat kengashi va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi hamda ARM tashabbusi bilan adabiy tadbir o'tkazildi. Tadbir Abdulla Oripovning adabiy merosini o'rganish, keng targ'ib qilish va talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy bilimini oshirishga qaratilgan savol-javoblar bilan qizg'in davom etdi. Tadbirning asosiy mavzusi “Sen bahorni sog'inmadingmi?” deb nomlanib, u shoirning oilasi va farzandlari ishtirokida bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda Abdulla Oripovning rafiqasi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibasi Hanifa aya Mustafoyeva va oila a'zolari, shuningdek, institutning professor-o'qituvchilari, ARM xodimlari hamda faol talaba-yoshlar ishtirok etdilar. Tadbirda shoirning yangi nashr etilgan

durdona asarlaridan iborat kitoblari Axborot-resurs markaziga hadya qilindi.

Ushbu tadbirda so'zga chiqqan ishtirokchilar Abdulla Oripovning adabiy merosi va uni yurtimizning madaniy hayotiga qo'shgan ulkan hissasini yuqori baholadilar. Tadbir davomida o'tkazilgan savol-javoblar muhokamasi shoirning asarlarini yanada chuqurroq o'rganish, yoshlarni uning ijodiga qiziqitirish va o'ziga xos ilhom olishga imkon yaratdi.

Tadbir so'ngida Ma'murjon Abdulloyevning “Sen bahorni sog'inmadingmi?” qo'shig'i orqali yig'ilganlarga yuqori kayfiyat va ruhiy ko'tarinkilik baxsh etdi.

Abdulla Oripovning ijodini o'rganish, uning asarlarini kitobxonlarga yetkazish va talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy bilimini oshirishga bo'lgan ehtiyoj har birimizni o'ziga jalb etadi. Shoirning hayoti va ijodi bizga har doim ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bahor kelayotir

*Bahor kelayotir,
Toza, musaffo.
Moviy kengliklarda o'ynaydi shamol.
Daralar qo'ynida zangor bir havo,
Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.*

*Qoyalar ko'ksida shodmon, beqayg'u,
Oniy umri bilan sollanib chechak.
Bahor – eng pokiza shabbodadir bu,
Bahor – eng pokiza shamoldir demak.*

*Kengliklar bag'riga uraman o'zni,
Ko'zimga ko'ringan dilbar diyorim.
Go'dak nafasiday yupatar yuzni,
Qish bo'yi intizor kutgan bahorim.*

*Bahor-ku o'tadi shamoldek shitob,
Mayli, o'tajak u va o'tar bo'lsin.
Azizim, umringda havo bo'lsin sof,
Umring shamollari muattar bo'lsin.*

Ustozga ehtirom



Inson o'z hayot yo'lini bosib o'tishi davomida juda ko'p narsani o'rganishi, izlanishi, kerak bo'lsa bu yo'lda qoqilishi ham tabiiy holat. Yashayapmizmi, demak, bu hayotning o'zi bizga katta muallim! Lekin hayotning ayrim pallalarida kishiga chinakam ustozlar, haqiqiy pedagoglar, asl ilm egalari yordamga keladiki, ularning saboqlari bir umr yodda qoladi.

E'zoza KARIMOVA,
“Madaniyatshunoslik”
yo'nalishi 1-bosqich
magistranti



Garchi hayot yo'llari kesishmasada, garchi saboqlari endi kerak bo'lmasada, qalbining to'rida o'sha insonlarga nisbatan minnatdorchilik hissi hamisha jo'sh urub turadi. Men ana shunday insonlardan biri, yosh bo'lsa-da juda ko'p talabalarning sevimli ustoziga aylangan, bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida pedagogik faoliyatini davom ettirayotgan Zilola Ergasheva haqida gapirmoqchiman.

Talabalik - oltin davr! Bu davrni yanada go'zallashtiradigan jarayon albatta ilm olish va izlanishdir. Bunda talabchan ustozlarning o'rni bo'lakcha. Zilola opa darslar davomida talabalar bilan do'stona muhitda muloqot almashish bilan birgalikda, til o'rganishda muhim hisoblangan ko'nikmalarni talabalar yaxshi egallashi uchun qattiqqo'llik ham qiladilar. Har bir topshiriq bajarilishi qat'iy talab qilinadi, jazo esa albatta muqarrar... Kamdan kam ustozlargina qattiqqo'llik va talabchanlik bilan talabalar orasida

ham hurmat, ham sevimli bo'lishga erishadilar. Zilola opa aynan shunday kam toifali pedagoglardan. Eng dangasa, fe'l-atvori og'ir talabadan tortib, eng bilimdonigacha bu ustozni hurmat qiladi. Darsdan tashqaridagi samimiy muloqotlar esa talaba va ustoz o'rtasidagi munosabatlarda katta rol o'ynashini ayni shu inson misolida ko'rish mumkin. Katta hayot yo'liga qadam qo'yayotgan talaba uchun berilgan har qanday beminnat yordam va foydali maslahat kelajak yo'lini belgilab olishda asqotadi.

Zilola opa avvalo ingliz tili o'qituvchisi, shu bilan birgalikda sohada ko'p yillik tajribaga ega inson sifatida har bir talabaga ingliz tilining imkoniyatlarini ochib berishdan charchamaydi. 1-bosqichga qabul qilinganimizdan buyon darslar davomida til o'rganishning qadri va imkoniyatlari haqida bot-bot ta'kidlar edi. Mana qarangki, 23 nafar bitiruvchi shogirdlaridan deyarli barchasi til o'rganishda institut darslaridan tashqari

qo'shimcha kurslarga bordilar. 8 nafari turli tillarni o'rganib, natijada sertifikat bilan magistratura bosqichiga qabul qilindilar. Darslar davomida turli o'yinlar va bayram kechalari tashkil etilishi esa, bilim olish jarayoniga yanada maroq bag'ishlaydi. Guruhlararo bellashuvlar esa, jamoa a'zolarini jipslashuviga xizmat qiladi. Zilola opaning darslarida bularning barchasi mujassam edi. Hozir ham kursdoshlar uchrashib qolganimizda ustozning darslarida bo'lgan qiziqarli voqealarni juda yaxshi kayfiyat bilan eslaymiz, albatta sog'inamiz. So'zim so'ngida mehribon ustoz, beminnat maslahatgo'y va albatta latofatli ayol Zilola opaga butun bitiruvchi talabalari nomidan tashakkur aytmaman. Go'zallik va nafosat bayrami, 8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan, sizni va siz kabi barcha go'zal muallimalarni chin yurakdan tabriklab qolamiz. Hamisha shogirdlar ardog'ida yurish nasib etsin!



Xalqaro darajadagi ingliz tili o'qituvchisi, "Axborot-kutubxona faoliyati" yo'nalishi sobiq talabasi Shohida SHOVQIYEVA:

"OKSFORDDA O'QISHIMGA QIZ BOLALIGIM UCHUN RUXSAT BERISHMAGAN..."

Bugungi maorif tizimi nafaqat fanlarni o'qitish, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi va muloqot madaniyatini shakllantirishga asoslanishi bilan e'tiborga molik. Chunki hozirgi paytda faqat bir tilda so'zlashish – qulflangan eshiklar oldida turish bilan barobar. Chet tillarini puxta bilish orqali o'sha eshiklarni ochish bilan birga insonning mustaqil qaror qabul qilishi, o'ziga ishonch darajasini oshirib, dunyoqarashini kengaytirishiga yordam beradi. Til o'rganish deganda, faqat darsliklarni o'qish va grammatik qoidalarni yodlash tushuniladigan paytlar ortda qoldi. Zamonaviy o'qitish metodlari tilni amalda qo'llash, uni tabiiy muhitda o'zlashtirish va jonli muloqot orqali egallashga undaydi.

Qolaversa, bugungi muvaffaqiyatli shaxslarning katta qismi bir nechta tilni bilishi bilan e'tirofga sazovor. Chunki til – kuch, imkoniyat, intellektual boylik! Ayni kunlarda O'zbekiston yoshlari orasida chet tillariga, ayniqsa, ingliz tiliga qiziqish tobora oshib boryapti. Bunda yangi uslublar, interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosiy drayver vazifasini bajarishi lozim. Umuman, tilni qachon o'rganish kerak? Qanday qilib? Klassik metodika kerakmi yoki zamonaviy yondashuvlar samaraliroqmi? Bizning ta'lim tizimi bu o'zgarishlarga qanchalik tayyor? Chet tillarini o'rganishda eng ko'p qo'yiladigan xatolar nima?

Ushbu savollarga javob topish uchun ruknimizning navbatdagi soniga xalqaro darajadagi ingliz tili o'qituvchisi, ilmiy tadqiqotchi, ta'lim blogeri, "Teacher Sharon" nomi ostida Instagramda minglab o'zbekistonlik yoshlarga ingliz tilidan muhim tavsiya va ko'rsatmalarni bepul ulashayotgan, hozirda xalqaro darajadagi professional o'qituvchilar safida til o'qitishning innovatsion yo'nalishlarini amaliy darslarida tatbiq qilayotgan qahramonimiz bilan fikr almashdik.

– Shohida opa, bilamizki, inson hayotidagi muhim burilish nuqtalaridan biri kasb tanlash jarayoni hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish kabi mas'uliyatli va ilhomlantiruvchi soha kishidan nafaqat bilim, balki ishtiyoq va chidamlilikni ham talab qiladi. Aynan qaysi sabab sizni mazkur sohani tanlashga undadi? Suhbat avvalida shular haqida va o'zingiz haqingizda biroz gaplashsak...

– To'g'ri ta'kidladim. Jarayon muhim. Chunki bu nafaqat hayot tarzimizni, balki dunyoqarashimizni ham shakllantiradi. Xorijiy til o'qituvchisi bo'lish – faqatgina bilim ulashish emas, balki shogirdlar uchun yangi ufq va imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashish va bu boradagi intilishlarini qo'llab-quvvatlash degani. Mazkur tilni puxta o'zlashtirishga jiddiy bel bog'ladim. Qo'shimcha darslarga qatnadim. Bilasizmi, o'rgangan sari o'rgangim, xorijiy mamlakatlarga chiqib, u yerdagi yetakchi oliygohlarda dunyo ta'lim standartlari asosida o'qishga qiziqib ketdim. "IELTS" natijam 8 ball bo'lgan.

Dunyoning yetakchi Oksford universitetiga grant yutib oldim. Mendan baxtli odam yo'q edi. Axir men endi Amerikaga boraman, qimmatli bilimlarni asl manbalardan olaman, degan xayol ustun edi-da. Biroq uydagilarim bunga rozi bo'lishmadi. Qiz bolaning begona yurtida yurishi maqbul emasligini aytishdi. Ishoning, bu menga qattiq ta'sir qildi. Ikki yil oliy ta'limga topshirmay yurdim. So'ngra, Toshkent davlat san'at va madaniyat institutining "Axborot-kutubxona faoliyati" yo'nalishiga o'qishga qabul qilindim. Hozirda xalqaro darajada ham, mahalliy darajada ham bir o'quv yilida 300 ga yaqin yoshni oflayn

va onlayn formatda o'qitaman. Turk, arab, ingliz, nemis, rus tillarida erkin so'zlashaman.

– Bular menga boshqa xalqlar madaniyatini tushunish, yangi bilimlar o'zlashtirish va dunyoni kengroq ko'rish imkonini berdi. Keyinchalik, shu qiziqish meni ilmiy izlanishlar qilishga, o'qitish metodikalarini chuqur o'rganishga undadi. Shunday qilib, bu sohaga bo'lgan qiziqishim shunchaki mashg'ulot emas, balki hayotimning bir qismiga aylandi. Albatta, bu yo'lda qiyinchiliklar bo'ldi. Chunki har bir kasb fidoyilik va mehnat talab qiladi. Ammo har safar o'z shogirdlarimning muvaffaqiyatini ko'rganimda, ularning yangi tillarni o'rganib, katta marralarni zabt etayotganiga guvoh bo'lganimda, tanlagan yo'limning naqadar to'g'ri ekaniga yana bir bor amin bo'laman.

– Bugun ingliz tilini puxta bilish faqatgina qo'shimcha ko'nikma emas, balki dunyoga chiqish, deyarli har sohada ustun ko'riladigan raqobatbardosh kadrda aylanishda asosiy rol o'ynaydi. Lekin ko'pchilik buni faqat imtihon topshirish yoki xalqaro grant yutish vositasi sifatida ko'radi. Sizningcha, til o'rganishning eng katta qiymati nimada? Xalqaro miqyosda tan olingan tilshunos va ta'lim sohasi mutaxassisi sifatida buning ahamiyatini yana qanday izohlagan bo'lardingiz?

– Menimcha, til – bu shunchaki muloqot vositasi emas. U inson tafakkurini shakllantiradi, dunyoqarashini o'zgartiradi va imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki til o'rganish insonni nafaqat bilimdon, balki zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis sifatida shakllantiradi.



Til o'rganish jarayoni avvaliga majburiyatdek tuyulishi mumkin. Lekin vaqt o'tib, inson o'zi sezmaganda holda uning fikrlashi, axborotni qabul qilish usuli va hatto hayotga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Masalan, agar men faqat o'zbek tilida gaplashsam, ma'lumotlarni faqat bitta manbadan olaman. Ammo besh tilni bilsam, biror mavzu bo'yicha besh xil manbadan axborot to'play olaman. Bu menga yangiliklarni chuqurroq tahlil qilish, xolis xulosa chiqarish va, eng muhimi, raqobatda ustun bo'lish imkonini beradi. Til – bu insonning eng katta kapitali. U nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki muvaffaqiyatga erishish yo'lidagi eng kuchli "qurol" hamdir.

– MDH davlatlari miqyosidagi ilmiy tanlovlarda ishtirok etib, yaxshigina yutuqlarga erishgan ekansiz. 2021 yilda Qozog'istonda o'tkazilgan "Eng yosh olim" tanlovi shulardan biri. Bu jarayonda qanday ilmiy izlanishingiz bilan g'olib bo'ldingiz?

– Ilmiy tanlovlar men uchun nafaqat bellashuv, balki yangi ilmiy yondashuvlarning xilma-xilligi va ta'limdagi zamonaviy trendlarni o'rganish imkoniyatidir. Shuning uchun ham faqatgina mahalliy tadqiqotlar doirasida cheklanib qolmasdan, xalqaro

miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman. Chunki faqat bir joyda qolib, o'z sohagidagi dunyo amaliyotini o'rganmasang, rivojlanish juda sekin kechadi.

2021-yilda Qozog'istonda o'tkazilgan "Eng yosh olim" tanlovida men o'zim olib borayotgan ilmiy tadqiqot yo'nalishi – kutubxona ta'limi va uning til o'rganishdagi o'rni haqidagi ishlarim bilan qatnashdim. Bugungi kunda til o'rganish tizimi asosan darsliklar va an'anaviy o'quv jarayonlariga tayanadi, ammo rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, faol o'quv muhiti yaratishda kutubxonalar va ularning interaktiv resurslari o'ta muhim ahamiyatga ega.

– Dunyoning ilg'or mamlakatlarida til o'qitish bo'yicha samarali modellar shakllangan. Siz Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya kabi davlatlarning ta'lim tizimi bilan tanishsiz. Xo'sh, ularning qaysi birida ustunlik yuqoriroq va bu mamlakatimiz tajribasiga solishtirilsa-chi?

– Shuni tan olish kerakki, til o'rganish va uni jamiyatda ommalashtirish borasida davlatimiz tomonidan yetarli shart-sharoit yaratib berilmoqda. **5-bet** ➔

Bu esa aholi vakillari, ayniqsa, yoshlarimiz chet tillarini o'rganishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, bu yo'nalishdagi tub islohotlar natijasi o'laroq, xorijiy til imtihonlarida yuqori natija qayd etayotganlar soni nafaqat miqdor bo'yicha, balki karrasiga oshib borishiga zamin yaratmoqda. Xususan, IELTS imtihondan 5,5 va undan yuqori ball olgan yoshlar soni 2020 yilga qaraganda (10 152 nafar) joriy yilda 5 barobarga (52 706 nafar) ortgan. Shuningdek, 2024 yilda imtihondan 7-8 ball (C1 daraja)ni qo'lga kiritganlar soni 2020 yilga qaraganda 7,4 karra oshgan. Bu quvononarli. Lekin jarayon faqatgina shart-sharoit bilan emas, balki ta'lim metodikasi, xalqning tilga munosabati va o'rganishga yondashuvi bilan ham bog'liq. Bu jihatdan bizda va ilg'or davlatlarda ayrim farqlar mavjud.

Buyuk Britaniya va Turkiya tajribasini olsak, bu yerlarda ham amaliy yondashuv kuchli. Britaniyada chet tili o'qitish tizimi erkin muhit yaratishga asoslangan. Odamlar har qanday xato qilishdan qo'rqmasdan muloqotga kirishadi, chunki ularni so'zlaridagi grammatik kamchilik uchun kamdan-kam tanqid qilishadi. Yaxshi tajribalarni qo'llash uchun dars jarayonini real vaziyatlar asosida qurish – nazariy bilimdan ko'ra, tildan foydalanish muhitini yaratish muhim. O'rganuvchilar xato qilishdan qo'rqmasligi kerak, muhit shunday bo'lishi kerakki, xato o'rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilinsin. Grammatikaga emas, kommunikatsiyaga urg'u berish – til insonlarni bog'lovchi vosita ekanligini anglash va uni yodlash emas, muloqot qilish uchun o'rganish kerak. Eng asosiysi, zamonaviy metodlarni qo'llash – Britaniya va Turkiya tajribasidagi kabi interaktiv ta'lim modellarini rivojlantirish. Agar biz aynan shularga urg'u bersak, til o'rganish jarayoni nazariy mashg'ulotlar emas, jonli hayotning bir qismiga aylanadi. Faqat shundagina til o'rganishga yondashuv butunlay o'zgaradi.

– Hozirgi zamon o'qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki tadbirkor, innovator va jamiyat yetakchisi bo'lishi kerakligi aytiladi. Siz ham pedagog, sohada o'z biznesini yo'lga qo'ygan mutaxassislardan birisiz. Sizningcha, bugungi o'qituvchining eng muhim fazilatlar qaysilar? An'anaviy pedagogikaning chegaralaridan chiqmagan ta'lim tizimi global o'zgarishlarga bardosh bera oladimi?

– Bugungi kun o'qituvchisining eng muhim fazilati nimada, deb so'rasangiz, javob bitta: o'z fanini chuqur bilishi, o'quvchilar bilan kreativ aloqa o'rnatish olishi va o'z ustida ishlashi deb bilaman. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari va maktablarda innovatsion o'qitish yo'lga qo'yilgan, deyishadi. Ammo amalda eskicha usullar, qolipga tushib qolgan dars berish uslubi hukmron. Men bunday holatlarga ko'p bora duch kelganman. Ehtimol, Germaniya yoki Britaniyada o'qituvchilar uchun interfaol treninglar o'tkazilar, lekin u yerda pedagoglarga qo'yiladigan talab juda aniq: agar o'qituvchi sun'iy intellektdan ham samaraliroq bo'lmasa, uning o'rnini boshqa, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega pedagog egallashi lozim. Bu qat'iy va odilona yondashuvdir.

– Ilmiy maqolalar yozish, akademik faoliyat bilan shug'ullanish aksariyat yoshlar uchun qiyin jarayon sifatida tasavvur qilinadi. Siz esa 25 dan ortiq ilmiy maqolalaringizni xalqaro jurnallarda chop etgansiz. Nima deb o'ylaysiz, bugungi yoshlar orasida ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabat qanday? Ilmga xizmat qilish qanchalik jozibador va uning jamiyatdagi obro'si qay darajada?

– Ilmga xizmat qilish qanchalik jozibador? Bu savolga javob berishdan avval, inson nimani "jozibador" deb bilishini aniqlab olish kerak. Chunki bir qarashda, ilm – sabr va matonat talab qiladigan, ko'pincha unchalik shov-shuvli ko'rinmaydigan mashg'ulot. Lekin aslida, haqiqiy ma'noda ilm bilan shug'ullangan odam uchun u nafaqat kuchli intellektual sinov, balki insonning shaxs sifatida yuksalishi uchun eng kuchli platformalardan biridir. So'nggi o'n yil ichida mamlakatimizda ilmiy faoliyatga bo'lgan e'tibor va moddiy rag'batlantirish masalasi ancha yaxshilandi. Ilmiy ish yozib, izlanishlar olib borayotgan yoshlar uchun xalqaro grantlar, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar va motivatsion dasturlar ko'paydi. Lekin bu jarayonda eng muhimi ilmning jamiyatdagi obro'si va yoshlar ongida uning qanday qabul qilinayotgani.

– Ta'lim tizimi hamon islohotlar jarayonida. Lekin ko'plab muammolar, jumladan, ta'lim sifati, zamonaviy metodikaning yetishmovchiligi va yoshlarning o'z ustida ishlash ko'nikmalarining sustligi hanuz dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Nima deb o'ylaysiz, 11 yil maktabda o'qib, sertifikat ololmagan yoki tegishli darajaga ega bo'la olmagan o'quvchi 2 yilda qanday qilib buni uddalashyapti?

– Ta'lim tizimidagi katta paradoks haqida so'z ochildi. Bu savol bugungi kunda juda dolzarb. Biz hammamiz bunga guvohmiz: o'quvchi maktabda 11 yil davomida ingliz tilini o'rganadi, lekin natija yo'q. Ammo repetitorda ikki yil ichida sertifikat olishga erishadi. Menimcha, buning sababi, o'qituvchilarning malaka darajasi. Asosiy vazifa shuki, o'qituvchilarni malakali kadrga aylantirish, ta'lim tizimiga mas'uliyat hissini singdirish va unga bo'lgan munosabatni o'zgartirishdir. Shundagina biz maktabda o'qigan bola ham repetitorsiz sertifikat oladigan tizimni yaratishimiz mumkin bo'ladi.

– Faoliyatingiz davomida minglab yoshlarning til o'rganishiga ko'maklashdingiz. Kelgusidagi maqsadlaringiz va ta'lim sohasidagi uzoq muddatli rejalaringiz qanday?

– Kelgusida til o'qitish bo'yicha innovatsion platforma yaratishni hamda kutubxona ta'limini rivojlantirishga doir dissertatsiya ishimni himoya qilishni rejalashtirganman. Bundan tashqari, xalqaro darajadagi ilmiy loyihalar ustida ishlash ham e'tiborim markazida. Ta'lim tadbirkorligi doirasida innovatsion ta'limga asoslangan bog'cha, maktab, oliygoh zanjiridan iborat ta'lim klasteriga asos solmoqchiman.

ILHOM ABDOUQAYUM
suhbatlashdi

Biz dunyoga kelibmizki, jamiyatda shaxsiy huquq va erkinliklarimiz mavjud.

Shaxsiy huquq va erkinliklar tartibi Konstitutsiyada yashash huquqi bilan boshlanadi. Insonning shaxsiy huquqi, uning xavfsizligi kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat tomonidan inson hayoti uchun ijobiy muhitni yaratish va uning sha'nini himoyalash majburiyatini ko'rsatadi. Shaxs asta-sekin bilim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi huquqlarga ham ega bo'ladi. Bu huquqlar nafaqat shaxsiy erkinlik, balki inson sha'ni va qadr-qimmati himoyasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jamiyatimizda inson huquqlari, ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy madaniyat darajasi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.



Madina CHORIYEVA,
Kutubxona-axborot
faoliyati ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Huquq va erkinliklarimiz DAXLSIZDIR

Afsuski, ba'zida huquqiy madaniyat yetishmasligi tufayli zo'ravonlik, kamsitish yoki qonubuzarliklarga duch kelamiz. Bunday voqealarga loqaydlik bilan qaramasligimiz lozim. Loqaydlik – adolatsizlikni yanada kuchaytiradi. Har bir fuqaro jamiyatning faol a'zosi sifatida adolatni qaror toptirishga o'z hissasini qo'shishi kerak. Loqaydlik haqida gapiradigan bo'lsak, bu jamiyat rivojiga putur yetkazadigan illatlardan biridir. Inson o'zning atrofida bo'layotgan voqealarga befarq bo'lishi – huquqbuzarlik va adolatsizlikka yo'l ochish bilan barobar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobida shaxsiy huquq va erkinliklar aniq belgilangan:

1. Fikr bildirish huquqi: har bir inson o'z fikrini erkin ifoda etish va g'oyalarini bayon qilish imkoniyatiga ega.
2. Axborot olish huquqi: fuqarolar istalgan axborotni erkin qabul qilish va uni boshqalar bilan ulashish huquqiga ega.
3. Harakat erkinligi: fuqarolar yashash joyini erkin tanlash va istalgan joyga ko'chib borish huquqiga ega.
4. Diniy erkinlik: har bir shaxs o'zi xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki umuman e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.
5. Shaxsiy hayot daxlsizligi: hech kim shaxsiy hayotga aralasha olmaydi. Davlat yoki boshqa shaxslar oilaviy va shaxsiy masalalarga aralashishi mumkin emas.

Demak, har bir fuqaro o'z huquqini bilishi, himoya qilishi va boshqalar huquqini ham hurmat qilishi kerak. Masalan, 27-moddaga ko'ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Fuqaroni qonuniy asos bo'lmasdan hibsga olinishi yoki ozodlikdan mahrum etilishi taqiqlanadi, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxs sud qarori bilan aybdor deb topilmaguncha, u aybsiz hisoblanadi. Ayblanuvchi o'zini himoya qilish huquqiga ega bo'lib, advokat yordami bilan himoyalaniishi ta'minlanadi. Bu erkinliklar demokratik jamiyatda qonun bilan himoyalaniib, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari shaxsiy inson hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilish huquqiga ega emas.

Davlatimiz rahbarining nutqi avvalambor, inson huquqlari borasida mamlakatda amalga oshirayotgan demokratik islohotlar hamda kelgusida amalga oshiriladigan bir qator chora-tadbirlarga qaratildi. Mamlakatimizda keyingi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, yoshlar huquqlari, xotin-qizlar huquqlari kabi qator yo'nalishlardagi islohotlar ijobiy samarasini bermiqda.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida belgilangan barcha maqsad va vazifalari aholi turmush darajasini yaxshilash va inson huquqlarini har tomonlama ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan 700 mingdan ortiq shaxs, shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha bo'lgan bolalar hayot kechirmoqda. Yuqorida keltirilgan qonun esa, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish va hayot farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Prezidentimiz nutqida parlament tomonidan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvetsiyani ratifikatsiya qilinishi kutilayotganligi haqida aytiladi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzishni taklif etildi. Har ikki taklif ham nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, har bir shaxs o'z huquqiy madaniyatini shakllantirishi lozim. Huquqiy savodxonlikka ega fuqaro nafaqat o'z haq-huquqlarini himoya qila oladi, balki atrofidagi insonlarning ham huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

GULSEVAR ERGASHEVA,
KUTUBXONA-AXBOROT
FAOLIYATI TA'LIM
YO'NALISHI 1-BOSQICH
TALABASI



SHAHRIYOR RADJABOV,
O'ZDSMI NUKUS FILIALI "MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI



Ayol

Sening noming ko'p ulug' bilsang,
Dunyolar keng ayol sen bo'lsang.
Hayot bo'lar kunda munavvar,
Baxtga to'lib bir bora kulsang.

Yashamoqning fayzi bo'lakdir,
Sen nur sochsang, chekingan oydir.
Olamni ham tutib kaftingda,
Bizlar uchun keraging bordir.

Bahorni chorlaydi har bir nafasing,
Jannatni eslatsa munis iforing.
Borliqning bezagi o'zingsan ayol,
Majnunni mahliyo qilgan nigohing.

Sen gulsan, lolasan atri rayhonsan,
Muhhabat kuyini chalgan navosan.
Ming toqat bitti deb undasalar ham,
Vafoni taratgan mayin sadosan.

NARGIZA SHODMONOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL
ETISH HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI



Mehriboning bo'lgani yaxshi

Doim seni o'ylab yurguvchi,
Mehridaryo mehr berguvchi,
Seni jondan yaxshi ko'rguvchi,
Mehriboning bo'lgani yaxshi.

Betob bo'lsang dardingga malham,
Senga sodiq bo'lguvchi har dam,
Goh-gohida tanbeh bersa ham,
Mehriboning bo'lgani yaxshi.

Baxtli bo'lsang, bo'lsa baxtiyor,
Darding olsa, bo'lsa hokisor,
Balki chin do'st, balki go'zal yor,
Mehriboning bo'lgani yaxshi.



DILSHODA OYNAZAROVA,
"OMMAVIY TADBIRLAR MENEJMENTI"
TA'LIM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

Bahor

Quvonchga to'ldirib dillarni,
O'sha bahor kelganga o'xshaydi,
Yashnatib, yayratib ko'zlarni,
Go'zal bahor kelganga o'xshaydi.

Dimog'da gullarning ifori bilan,
Xushbo'y bahor kelganga o'xshaydi,
Kurtak ochayotgan daraxtlar bilan,
Ko'klam bahor kelganga o'xshaydi.

Yuzda kulgi, labda tabassum,
Ko'zda sevgi, qalblarda quvonch,
Ezgu niyat, yaxshi kun bilan,
Bahor takror kelganga o'xshaydi.

Yaxshilikka qarasin yuzing

Yiqilsang yerga emas osmonga boq,
Hayotning raglari ekan qora-oq,
Og'riqdan ko'z yoshing bo'lmasin buloq,
Dunyo bir kami to'lmagan shundoq.

Kimdir qiynalarkan ochlik azobda,
Kimdir yaqinidan bo'lar uzoqda,
Iymon tursin faqat sizning tilakda,
Shunda peshtoqdasin bilingiz Haqda.

Quzg'undek bo'mangiz burgutdek bo'ling,
Ulug' ostonalar siz uchun biling,
Hamma aybga sabab ey inson tiling,
Til besuyak odam, shuni ham biling.

Eshtmaydi, deb ayt mang hamma gaplarni,
Qilmangiz hech ham doston dardlarni,
Beozor bo'ling, og'rit mang qalblarni,
Sirdosh bo'lingiz-u, sot mang sirlarni.

Nasihatni qiling, oshsin ilmingiz,
Yomonlikni qo'yib, yaxshilik qiling,
Hayotdan zavqlaning yosh ko'r may ko'zingiz,
Yaxshilikka qarasin, ko'z, qosh, yuzingiz.

Hayol

Muhabbat, go'zal bir daraxt misoli,
Hayol surasan-u, kulasan hiyol,
Undagi shoxlarning har bir zarrasi,
Kuchli bir ishonchga yo'nalish darkor.

Go'zal bir daraxtni asrab, avaylab,
Uning shoxlarini kesguvchilar bor,
Qo'lingdan kelsa gar shoxlarin asra,
Unga bo'lgan ishonchni oqla.

Muqaddas tuyg'uni his qilsang agar,
Dunyo ko'zlaringga ko'runur go'zal,
Hatto yiroqlarda turgan yulduzlar,
Sening eng yaxshi bir hamrohing bo'lar.



SOJIDA PARDABOYEVA,
O'ZDSMI NUKUS
FILIALI "MADANIYAT VA
SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI



U hovli to‘ridagi supaga asta cho‘karkan, tevarakka mehr bilan tikildi. Illo bu dargohning dov-daraxti, imoratidagi har bir g‘isht, hatto ishqomda o‘tirgan chumchug‘-u maynalari ham qadrli edi. Suv sepilgan hovlidan tuproq isi dimoqqa urilar, bu xush nasim ichida yana nimadir unga juda tanish, yaqin edi. Bolaligi o‘tgan bu maskanda unga notanish narsaning o‘zi yo‘qdek, ammo shu tobda bu is unga unutilgan nimanidir yodiga solar, ajib hislarni ko‘ngil qatida mavjlantirardi. Nasima sekin yonveriga alangladi.

Nazarida bu yoqimli hid yonginasidan kelayotgandek edi. Ortiga o‘girildi-yu, supa yonboshida gullagan jiydaga ko‘zi tushdi. Bo‘yi uch-to‘rt metr keladigan daraxt chunon gullagan edi-ki, oq-sariq gullari iforga, tarovatga to‘lgan, hovliga o‘zgacha husn bag‘ishlagandi. Nasimaning yuz-ko‘zi porlab, dili hayajonga to‘ldi. Ochig‘i, bu yerda jiyda borligini, bir paytlar ekilganligini unutayozgandi. Mehmonning besaramjon bo‘lib qolganligini ko‘rgan Dilbar opa dasturxonga choynak-piyola qo‘yar ekan:

– Nasimaxon tinchlikmi? Nima, tobingiz qochdimi? – dedi mehmonga yaqinroq kelib, uning ko‘zlariga sinchkovlik bilan tikilar ekan. Nasima o‘zini tutib, bir dam jim turdi-da, “tinchlik” deb, uzatilgan choydan ho‘pladi.

Mehmon bot-bot qarab qo‘yayotgan jiydaga kelinoyisi asta nazar tashladi-da, gap nimadaligini anglagandek:

– Ha, bu jiydani ahangiz bilan ekanmisiz, deymen, – dedi va javob kutmasdan shamolga birdek tebranib turgan daraxt gullariga havas bilan qarab, davom etdi:

– Gullaganini qarang, buning. Shu yil o‘tgan yilgidan ham ko‘p gulladi. Sizga ilingan ekan-da, bu qurmag‘ur. Ahangiz ham ahyon-ahyonda tagiga kelib, o‘zicha nimalardir deb, daraxt bilan gaplashib qo‘yadilarmi-yey, hayron qolaman. Bir so‘ray deymen-u, keyin mayli hijolat bo‘lmasin, deymen-da.

Nasima kelinoyisining jiyda bilan bog‘liq boshqa narsa bilmasligini sezdi. Norin akasi Qoplon haqida uydagilarga aytmagan chog‘i. Balki shunisi ham tuzukdir. Kelinoyisi “oling, oling”, deb o‘choq boshiga chiqib ketdi. Hozir uning xayolida bolalik onlari jonlanar, sochlari jamalak qizaloqlarning “qiqir-qiqir” qilib, shu hovliga suv sepib, o‘ynab yurgan vaqtlari ko‘z oldida jonlanardi.

Ular tog‘asi bilan bitta mahallada yashash, tog‘asining kenjasi Dilnor bilan tengdosh bo‘lganligi uchun kuni deyarli shu yerda o‘tardi. Dilnor ham yolg‘iz qiz bo‘lganligi uchun Nasima bilan o‘ynar, o‘zlari yasagan latta qo‘g‘irchoqlarini olib, tomorqa adog‘ida “xola-xola” o‘ynashni kanda qilmasdi. Ayniqsa, akasi Norin ko‘zlari ko‘zmunchoqdek, o‘zi qop-qora kuchukcha olib keldi-yu, ularning o‘yinlariga yanayam mazmun kirdi. Hamma yumushdan ortmaydigan hovlida kuchukka qizchalar ko‘proq qarar, uni yosh boladek erkalatib, tim qora yunglarini tarashar, jonivor ham “vov-vov” lab bolalarning ortidan qolmasdi. Begonalarni hovliga yo‘latmaydigan bu uy qo‘riqchisiga qizlar Qoplon deb nom qo‘yishdi.

Ikki yil deganda kap-katta itga aylangan Qoplon endi Norin bilan ko‘chaga chiqib ketar, mehribon bu yigitni jonivor boshqacha yaxshi ko‘rardi go‘yo. Yigit ishdan kelishi bilan it unga bo‘yi barobar sakrar, old panjalarini uning yelkasiga qo‘yib, tilini chiqarib erkalayar, indamasa yuz-ko‘zidan zalay ketardi.

Odatda it bolalarga teginmas faqat shu hovlidan qo‘shni uyga o‘tib ketuvchi Xursanoy va Ergashni ko‘rsa yunglarini hurpaytirib, dumini ko‘tarib huraverardi. Bu opa-uka Nasimaning kenja tog‘asining farzandlari bo‘lib, ular devor-darmiyon yashashardi. Katta eshik turib, opa-uka Dilnorlarning hovlisidagi o‘rta eshikdan uylariga o‘tar, har o‘tganda Qoplonga tosh otib, uning vajohatini oshirishardi. Ularning onasi Fayzixon esa itga qarab, “lloyo, og‘zig‘ingandan qoning kelsin, bolalarimga hurgandan ko‘ra, anavi it tegmas Murodni qopgin, yashamagur”, deya o‘tib ketardi. Nasimaning bu kelinoyisi badjaxlligi, qarg‘ishi, g‘iybatchiligi bilan ko‘pchilikning dilini og‘ritardi.

Murod Dilnorning katta akasi, hali uylanmagan, negadir sovchilikka borgan joylari bir oz o‘tib, rad javobini beraverardi. Bunda ovsini Fayzixonning qo‘li bor degan gumonda bo‘lsa-da, isboti bo‘lmagani uchun Mohira “lom-lim” demas, faqat o‘g‘lining odamovi, qaysar bo‘lib borayotganligidan xavotirga tushardi.

Nasima va Dilnorning Qoplon bilan yugurib, tayoq otib o‘ynayotganlari qo‘shni uyga eshilib turar, shunda Fayzixon “Yashamagurlar, itdek xor bo‘lgurlar” deb qizlarni ham qarg‘ab

qo‘yardi. Ammo qizlarning bunday shodumon kunlari uzoqqa bormadi. Endi kunduzlari Qoplonni eshik oldidagi simyog‘ochga bog‘lab qo‘yadigan bo‘lishdi. Katta kelinoyisi itni bahona qilib, “Bolalarim shu yer yutgurdan maktabga o‘tib-qaytishga qo‘rqishayapti”, deb javrayverganidan tog‘asi uni bog‘lab qo‘ydi. Bunga Norin anchagacha norozi bo‘lib yurdi-yu, lekin otasining gapini ikki qilishdan o‘zini tiydi. Endi yigit nomozshom bo‘lar-bo‘lmay Qoplonni bo‘shatib yuborar, jonivor ham ozod bo‘lishini bilib, dumlarini tinmay silkitar, egasini iskab, tezroq arqon yechilishini kutardi. Ozod bo‘lgach, duch kelgan tomonga yugurar, kuch-quvvati, shijoati tanasiga sig‘may ketardi. Kechasi bilan yugurib-yelib chiqqan Qoplonni Norin tongda yana yoniga chaqirib, silab-siypalar, quloqlarini ushlab, unga nimalardir der, xuddi itidan uzr so‘rayotgandek, yonida ancha vaqtgacha o‘tirardi. Jonivor ham uni tushungandek, bandilikka rozi bo‘lgandek bo‘yniga arqon solinishiga jim qo‘yib berardi. Yana to kechgacha jaziramada Qoplon tili



osilib, issiqda turar, Nasima unga suv va non olib keldi. Shunday kezlari tilsiz jonivorning mungli ko‘zlariga qarab yuragi achishardi.

Yozning haroratli kunlaridan biri. Jon borki, o‘zini soyaga oladigan pallada Murod lohaslanib ishdan qaytdi-da, supadagi xontaxta ustidagi ayronidan simirdi. So‘ng chang tuproqdan oqarib ketayozgan kovushini yechib, ust-boshiga razm soldi. Balog‘atga yetgan, kuch-quvvat yog‘ilib turgan vujudini bu kiyim-bosh hozir aftodohol, bechora ko‘rsatardi nazarida. Kecha qo‘shni qishloqlik Gulsumning ota-onasi ham negadir sovchilarni qaytaribdi. O‘zi omadi yurishmagan odamda. O‘qishga kirolmadi, armiyaga yassioyoq deb olishmadi. Lekin qachondir taqdir deganlari boshqa o‘zanga burilishi kerak-ku. Shunday o‘tmaydi-ku axir? U shunday xayollar girdobida yostiqa yonboshladi. Akasining kayfiyati yo‘qligini payqagan qizlar o‘rik tagida qo‘g‘irchoqlariga pichirlab alla aytishardi. Shu payt tashqarida Qoplon tinimsiz hurkib qoldi. Qizlar o‘yinchoqlarini tashlab, uning yoniga yugurishdi. Qarashsa, Xursanoy bilan Ergash itga cho‘p tiqib, uning jahlini chiqarar, itning yaqin kelolmasligini bilib, kesak otib, masxaralashardi. Nasima chopib borib, o‘zidan uch-to‘rt yosh katta Xursanoyning bilagidan tortib, siltab tashladi. Buni ko‘rib Ergash Nasimaga tashlandi. Bir zumda bolalarning qiy-chuvi avjiga chiqdi. Dilnor nima qilishini bilmay opa-ukaning changalidan Nasimani chiqarmoqqa urinar, lekin kuchi yetmasdi. Shu payt hovlidan chiqib kelgan Murod Ergashni bir tomonga, Xursanoyni boshqa tomonga turgazib qo‘ydi. Boyadan beri ammasining qiziga tarsaki tushirayotgan Xursanoy endi yuzlarini berkitib baqirib yig‘lab yubordi. Qizining ovozini eshitgan Fayzixon esa eshikdan chiqa solib, qo‘llarini paxsa qilganicha Murodni qarg‘ay ketdi.

– Nega, urasan-a, qo‘lginang singur. Qizimdek qiz ko‘rmagur?


– Men uni urganim yo‘q, o‘zi Nasimani urayotgan ekan, ularni ajratdim, – dedi Murod ham qo‘rslik bilan.

– Bolalarning o‘rtasiga nega tushasan-a, iloyo chimildiq ko‘rmagur. Yigit boshing lahadda chirimasa rozimasman.

– Bu nima deganingiz, og‘zingizga qarab gapiring, undan ko‘ra bolalaringizni tarbiya qilib oling, – dedi akasi ham qizarib, manglayini qo‘li bilan artarkan.

– Voy o‘lay, manavini qaranglar, menga aql o‘rgatayapsanmi? Sen o‘zingni bilgin, senga mana shu it ham tegmaydi, bidingmi. Sog‘ bo‘lganingda armiyaga borarding, maylimi. Umring shu itga qarab o‘tadi hali shoshmaytur. lloho itdek o‘lim topmasang rozimasman.

Kelinoyisi vaysaganicha bolalarini olib uyiga kirib ketdi. Nasima bilan Dilnor patila sochlarini tarar ekan, qo‘rqibgina akasiga qarashdi. Murod turgan yerida tek qotgan, qo‘llari musht tugilgan, ko‘zlari tobora qizarib borar, bu sukut ortida nimadir portlamog‘i ayondek edi. Shu payt akasi boyadan beri qo‘shni hovliga qarab hurayotgan Qoplonga qarab yura boshladi. Qizlar bir noxush hodisa ro‘y berishini sezgandek sekin uning ortidan ergashishdi. Akasi arqonni jahl bilan yechib, itni yetaklab hovliga kirdi. Uni o‘rik shoxiga bog‘lab, molxonadan qoziq olib keldi va uni taqillatib yerga qoqa boshladi. So‘ng arqonni itning tumshug‘ini qoziqqa tegar-tegmas yaqin qilib bog‘ladi-da, omborxonaga kirib ketdi.



Nargiza ASADOVA, Madaniyat va san‘at sohasi menejmenti magistranti, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

tashlay boshladi. Tuproq ostida ham badani titrayotgan itning ko‘zlari ochiq, bu ko‘zlar ilgarigi Qoplonning quvnoq, mehrlil ko‘zlari emas, balki yeru-ko‘kka qarab “Gunohim nima?!” deyotgandek unsiz nola edi.

Akasi belkurakni hovli adog‘iga igr‘itib yubordi-da, oyog‘i ostiga «chirt» etib tufiab, uyga kirib ketdi. Oniy lahzalarda bo‘lgan fojeani anglab-anglolmagan qizlar karaxt qotgan, qazilgan tuproq ustiga o‘tirib tinmay yig‘lashar, tuproq ostiga ularning Qoplon bilan o‘tgan shodon kunlari ham ko‘milgandek, o‘pkasi to‘lib- toshib yig‘lashardi.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, Norin eshikdan kirib kelar ekan, simyog‘ochda itining o‘rni bo‘shligini ko‘rib, “Dilnor Qoplon qani?“, deb so‘radi. Yuz-ko‘zlari qizarib, shishib ketgan qizlar yugurib uning oldiga kelisharkan, yig‘lamsirab biri-biriga so‘z bermay, “Aka, aka, bilasizmi Murod akam Qoplonni chopib, ko‘mib tashladilar” deya gapira ketishdi. Norin akasi “Nima, nega, nega chopadi?!” deb so‘rar, boyagina qazilgan tuproq ustiga kelib, “U tirikmide, a, tirikmide? Kavlab olaman hozir” deb belkurakni hovlidan topolmay gindiraklar, “Nega axir, nega? Aqlini yeganmi u? Jallod!” deb baqirar, so‘kinar, derazadan ukasining faryodini eshitib turgan Murod esa ichkarida yuzini yostiqa bosganicha o‘kirib yig‘lardi...

Oradan vaqt o‘tdi. Bu hovlida “Yor-yor” aytilib, kelin ham tushdi. Uydagilar o‘tgan noxushlikni eslamay ham qo‘yishdi. Lekin Norinning ko‘ngil chigili yozilmadi. Kunlardan bir kuni u Qoplon ko‘milgan joyga jiyda ko‘chatini o‘tqazdi. Yosh novdani parvarishlab, suv quyayotgan ukasini ko‘rganda Murod ezilar, ammo oldiga borib so‘z aytishga jur‘at topa olmasdi.

Mana oradan qancha suvlar oqib o‘tdi. Bu dunyoga kimlar kelib, kimlar ketmadi. Murod akasi ikkita bolali bo‘lganda mototsilkida avariya uchragan vafot etdi. Tumonat odam yig‘ilgan janozada Nasima ko‘zlari ochiq qolgan akasining jasadini ko‘rib, negadir Qoplonni esladi... Oqibatsiz farzandlaridan aziyat chekib, o‘ligi uch kun qolib ketgan Fayzixon kelinoyisini so‘nggi yo‘lga kuzatar marosimda, uni tilsiz jonivorning uvoli tutdimikan, degan xayolga cho‘mdi. Jiyda esa yildan yilga barq urar, har yili xushbo‘y gullari, mazali mevalari bilan xonadon egalarini xushnud qilardi. Nasima daraxtning och sariq gullarini, baxmal barglarini ushlab shularni eslar ekan, ortidan Norin akasining:

– Iya, shaharlik jiyan kelib qolibdi-ku, bormisan Nasi... , – deganini eshitdi.

Akasi uning peshonasidan o‘pdi. U sochlariga yillar qirov qo‘ndirgan, biroq nigohlarida hamon mehr balqib turgan, qancha yaxshi-yomon kunlariga guvoh akasini ko‘rib, ko‘ngli iyib ketdi. Kipriklarida yosh yaltiradi. Shu payt katta darvozadan shovqin solib kirib kelgan bolalar bilan sakrab, o‘ynoqlab kelayotgan kuchukchaga ko‘zi tushdi-yu, beixtiyor “Qoplon” deb yubordi. Nabiralarning ortidan yurgan tim qora, dumlari gajak, panjalari oq kuchukchaga qarab yosh boladek yugurib ketayotgan Nasimaning ortidan akasi miyig‘ida kulib qarab qoldi...

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV



Sport tarixida matonatli xotin-qizlar

Toshkent fotosuratlar uyida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan, o'zbek ayoli – o'tmish, nafosat va kelajak ramzi shiori ostida "Sport tarixida matonatli ayol siymosi" nomli IV Respublika fotoko'rgazmasi tashkil etildi.

Fotoko'rgazmada sportimiz tarixida xotin-qizlar mavqeiga oid kino foto hujjatlari milliy arxivi saqlovidagi ayol sportchilari hamda O'zbekiston Axborot agentligi fotomuxbirlarining 1930-yillardan boshlab sport hayotidan olingan fotosuratlar taqdim etilgan, huquqiy bazaga e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarning nafaqat san'at, madaniyat

shuningdek, sportdagi muvaffaqiyatlari yuksak taqdirlanmoqda.

Ko'rgazmaga kelgan ijodkorlar, san'at muxlislari, kuzatuvchilari, ayniqsa ilk bor namoyish etilayotgan 20 dan ortiq fotosuratlar sportchi ayollarimizning tasvirlarda aks etgan hissiyotlardan o'z davridagi matonati, kuch-g'ayrati va qog'ozga bo'lgan qiziqishini ko'radi.

Ko'rgazmaning ochilishi va namoyish etilishi jarayonida turli kasb egalari, talaba o'quvchilar, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zarxiv, O'zbekiston kino foto hujjatlari milliy arxivi, O'zbekiston milliy axborot agentligi, ommaviy axborot vosilalari vakillari qatnashdilar.

Bahor versinaji

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan "Bahor versinaji" tashkil etildi. Unda Respublikamizning 31 nafar ayol rassomlarining tasviriy san'atning turli janr yo'nalishlarida rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, mayda plastika hamda chinni buyumlar va boshqa uslublarda, asosan keyingi yillarda yaratgan ijodiy ishlari o'rin olgan.



Ekspozitsiyadagi "Sharqona natyurmort", "Ariya", "To'maris", "Aks", "Bodom gullaganda", "Jimjitlik tovushlari", "Ajdodlar ko'z yoshlari", "Obi hayot", "Bahor bulutlari", "Namatak gullaganda", "Atir gullar", "Tasavvur", "Lolaqizg'aldoq", "Kelinchak"

va boshqa ijodiy ishlar bahor fasliga xos bo'lgan his-tuyg'ular va jo'shqin kechinmalar bilan to'yingan. Uyg'onish, yangilanish, maftunkorlik, ayol qalbiga xos barcha hislatlar ifodalangan ko'rgazma joriy yilning 31-martigacha davom etadi.

Ona...

Lampochkani ixtiro qilgan Tomas Edison bolalik paytida uyiga qaytib: "Mana bu maktab idorasidan maktub!" deb onasiga bir qog'ozni uzatdi. Onasining ko'zi jiqqa yoshga to'lib, maktubni jajji bolasisiga o'qiy boshladi:

"O'g'lingiz o'ta iqtidorli, maktab unga va uning qobiliyati uchun kichiklik qiladi. Uyida ta'lim ola qolsin!"

Bir necha yillar o'tdi. Insoniyat tarixidagi eng ulkan ixtirochi Tomas Alva Edisonning onasi vafot topdi. Kunlarning birida onasining eski shkafini titkilayotgan edi, quyidagicha yozilgan maktubni topib oldi:

"O'g'lingiz o'ta beaql, ertadan maktabga



Iqtibos

kirmasin!"

Edison uzoq vaqt yig'isini to'xtata olmadi. Shundan keyin xotiralar daftariga quyidagi satrlarni bitdi:

Edison o'ta kaltafahm bola edi. Lekin onasining go'zal xizmati sababli talant sohibiga aylandi.

Mitti hikoya

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

RAMAZON ARMONI

Gulnora xolam haqida yozgim keldi. U onamning katta singlisi edi. Alloh buyurgan taqdir ekan, qirq besh yil umr ko'rdi. Chiroyli xotima topdi. Ta'ziyaga kelgan har bir inson xolamning xotima kuniga havas qildi. Duoga qo'l ochib, shunday ulug' kunni niyatlad. Xolam ro'zai Ramazonning Laylat ul-qadr kechasida so'nggi nafasini yashab o'tdi. Uzoq emas, 2010-yil edi.

Oshirmay-toshirmay aytaman, Gulnora xolamning husniga gullar hasad qilardi. Bo'y-basti kelishgan, sutdek oppoq, xushbichim xolam tug'ruqxonada hamshira bo'lib ishlardi. Tabiatan kamtomoq edi. Shunaqa tartibli taomlanardiki, bir kunda bir bo'lakdan ortiq non yemasdi. Meditsinani qadrlardi, qoidalariga rioya qilardi. Buyam Allohning buyurgani ekan, xolam o'ttiz sakkiz yoshida qand kasaliga yo'liqdi.

Xastalikdan kuch-madori bo'lmay, ko'p yotoqchilardi. Ammo kun besh namoz vaqt kirganida, joynamoz ustida edi. Emaklab bo'lsayam, ibodatga kuch topardi. Faqat ro'za tutolmasdi. Ro'zadorlarga havas qilardi. "Ozosh, ro'za kunlari armondaman. Qaniydi sog' bo'lsam-u, yil o'nikki oy ro'za tutsam", derdi menga.

Xastalikka yetti yil dosh bera oldi... Hayotni sevardi. Xudodan qo'rqardi. Oilaparvar edi. Farzandlariga gard yuqtirmasdi. Ikki dunyo xayolida yashab o'tdi...

Har yili mohi Ramazona, guldan go'zal Gulnora xolam menga jilmayib qarab turgandek bo'laveradi...

IKKITA KO'YLAK

Onamning singlisi Gulchehra xolam ko'p yashamadi. Bultur ro'zai Ramazon kunida, ellik to'rt yoshda boqiy dunyoga rihlat qildi.

Xo'p ajoyib ayol edi. Gapni qog'ozga o'rab gapirish, joyida "paxta qo'yish"ni bilmasdi. Ichidagini shundoq aytib yuboradigan soddadil, beg'ubor inson edi. Bir gapirib, o'n kulardi. Hayotga oddiy va sodda nigoh bilan qarardi. Dabdabani, hashamatni xushlamasdi.

Juda oddiy kiyinardi. Yorqin rang va guldor libosni egniga ilmasdi. Uzun ham kiyolmasdi. "Uzun ko'ylakda o'rallashib, yiqilib tushaman. Etakka oyog'im chalishib, yurolmayman", der edi. Faqat sidirg'a matodan, tizzani yopadigan uzunlikda libos kiyardi. Xolamni bilibmanki, sochi doim kalta turmakda. Qosh-ko'ziga qalam tortganin ham ko'rmaganman. Pardoزدan mutlaq toza yuzi quyoshdek porlard. Chindan ham o'z ismi bilan gulchehra edi.

Eslayman, farzandlari mayda paytidan besh vaqt namozga qoyim turardi. Qachon, qayerda va qanday sharoitda bo'lmasin bir chetga joynamoz to'shab, bandalik farzini ado qilardi. Xolam onamga aytar ekan: "Zulfiya opa, ikkita ko'yilagingizni uchta qilmang. U dunyoda uchinchi ko'ylakning javobi bor".

Alloh yo'q joydan bo'yi sumbatdek xolamga bedavo dard berdi. Bu dard bilan xolam ikki yarim yil kurashdi, olishdi...


G'assolning aytishicha: mayitdan xushbo'y ifor taralib, o'zini oson va yengil qo'yib bergan emish...

Xaloyiqning aytishicha: tobut qabrison tomon uchgan emish...

Go'rkovning aytishicha: qabr oson va tez qazilib, tuprog'i ukpar emish...

O'g'illarning aytishicha: mayitni lahadga qo'yayotganda, qabr keng va yorug' emish...

Ta'ziyadan so'ng jigar dog'ida tutdek to'kilgan onam aytadi: "Gulchehraning shifoneri bo'm-bo'sh. Har bir mavsumga ikkita ko'ylak. Chiroyligim, oppog'im Xudodan qo'rqib, ikkita ko'yilagini uchta qilmabdi-ya..."



Gabriel Garsia MARKES

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:
Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 31.03.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda